



“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI  
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК “УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК  
“UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK” JOINT-STOCK COMMERCIAL BANK  
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 3-uy, 100000  
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

**ODOB AHLOQ KOMISSIYASI**

## **“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Odob-axloq komissiyasining YIG‘ILISH BAYONI**

2026-yil 19-mart

Toshkent shahri

**Komissiya raisi:**

Boshqaruv Raisi maslahatchisi **A .Islamov**

**Komissiya raisi  
o‘rinbosari:**

Ichki xavfsizlik departamenti direktori  
**S.Sergiyenko**

**Komissiya a‘zolari:**

Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish  
departamenti direktori v.v.b.  
**Yu.Vershilo**

Yuridik departamenti direktori v.v.b.  
**U.Aminova**

Komplayens-nazorat departamenti  
direktori **A.Yoqubjonov**

Risk menejment departamenti  
direktori o‘rinbosari **D.Xujayev**

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati  
rahbari **Sh.Ismoilov**

**Komissiya kotibi:**

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati  
menejeri **Sh.Navruzov**

### **KUN TARTIBI:**

**1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlari tomonidan 2026-yil yanvar–mart oylari davomida taqdim etilgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil natijalarini ko‘rib chiqish.**

**2. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda xodimlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganligi aniqlangan holatlar yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganish natijalarini ko‘rib chiqish.**

### 3. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 5-martdagi 03-07/17-sonli (XDFU) xatida ko‘rsatilgan, aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq xavflar yuzasidan o‘tkazilgan tahlil natijalarini ko‘rib chiqish.

---

Komissiya Raisi A.Islamov tomonidan yig‘ilish ochiq deb e‘lon qilindi hamda kun tartibidagi masala bo‘yicha axborot berish uchun so‘z Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilovga berildi.

Sh.Ismoilov komissiya a‘zolariga:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 632, 29.01.2025-y.) talablariga binoan bank xodimlari tomonidan taqdim etilgan yillik deklaratsiyalar umumlashtirilgan holda tahlil qilinganida, 2026-yil uchun jami **4139 nafar** xodimdan **3902 nafari** tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar taqdim etilganligini;

- **184 nafar**, shundan **33 nafari** Bosh bank va **151 nafari** BXO va BXM xodimlari bola parvarishlash ta‘tilida ekanligi sababli manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar taqdim etilmaganligini;

- **53 nafar** (1-ilova), shundan **11 nafari** Bosh bank va **42 nafari** BXO va BXM xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni **belgilangan muddatda hech qanday asoslarsiz** taqdim etilmaganligini (*Izoh: O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasi talablariga binoan barcha xodimlar ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirishi va har yili 15 yanvardan kechiktirmay maxsus bo‘linmaga taqdim etishi kerak*);

- **1255 nafar** (2-ilova), shundan **637 nafari** Bosh bank va **618 nafari** BXO va BXM xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni belgilangan muddatdan kechiktirib taqdim etganligini;

- **1555 nafar** (3-ilova), shundan **801 nafari** Bosh bank va **754 nafari** BXO va BXM xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarida yaqin qarindoshlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ochiqqlamaganligini;

- **151 nafar** (4-ilova), shundan **81 nafari** Bosh bank va **70 nafari** BXO va BXM xodimlari tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotganligini;

- **139 nafar** (5-ilova), shundan **76 nafari** Bosh bank va **63 nafari** BXO va BXM xodimlar tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlarni ochiqqlamaganligini;

- **1133 nafar** (6-ilova), shundan **616 nafari** Bosh bank va **517 nafari** BXO va BXM xodimlari yaqin qarindoshlariga tegishli tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘liq ko‘rsatib o‘tmaganligini;

- **199 ta** holatda (7-ilova), shundan **160 nafari** Bosh bank va **39 nafari** BXO va BXM xodimlari o‘rtasida “ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi” holatlari aniqlanganligini;

- Shundan, **22 ta** holatda (8-ilova), xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yillik deklaratsiyalarda ochiqqlanmaganligini;

- Bank tizimda fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida jami **14 ta** holatda (9-ilova), shundan **12 ta** holatda "ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" hamda **2 ta** holatda "mavjud manfaatlar to'qnashuvi" holatlari aniqlanganligini;

- **4 ta** holatda (10-ilova), shundan **1 ta** holatda Bosh bank va **3 ta** holatda BXO va BXM xodimlari o'rtasida "mavjud manfaatlar to'qnashuvi" holatlari aniqlanganligini ma'lum qildi.

- Xususan, BXO va BXMlarda aniqlangan **3 ta** "mavjud manfaatlar to'qnashuvi" (yaqin qarindoshlar biri ikkinchisining bevosita bo'ysunuvida faoliyat ko'rsatib kelayotgan) holat (Jizzax BXO boshqaruvchisi S.Isroilov va uning qayni opasi Jizzax BXO mijoz menejeri D.Ashurova (Bola parvarishlash ta'tilida), Xorazm BXO boshqaruvchi o'rinbosari (biznes bo'yicha) R.Tangriberganov va uning turmush o'rtog'i Urganch BXM universal kassiri F.Atajanova (Bola parvarishlash ta'tilida) va Qoraqalpog'iston Respublikasi BXO boshqaruvchi o'rinbosari (davlat dasturlari bo'yicha) A.Djoldasbaev va uning turmush o'rtog'i Innovatsiya BXM kichik servis menejeri M.Ismailova (Bola parvarishlash ta'tilida) lari mehnat qonunchiligi talablariga binoan belgilangan tartibda bola parvarishlash ta'tilida ekanligi hozirgi kunda bevosita bank amaliyotlarini bajarmayotganligi sababli, ular bola parvarishlash ta'tilidan qaytganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasi o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqligi bayon etildi.

Shuningdek, Bank va uning BXO (BXM)larida aniqlangan **3 ta** "mavjud manfaatlar to'qnashuvi" (yaqin qarindoshlar biri ikkinchisining faoliyatini nazorat qilib kelayotganligi) holat (Qoraqalpog'iston Respublikasi BXO mijoz menejeri M.Asaubekov va uning turmush o'rtog'i Taxiatosh BXM yakuniy nazorat guruhi kichik menejeri G.Niyetova hamda Axborot texnologiyalari departamenti yetakchi dasturchi M.Kumakov va uning ukasi Axborot texnologiyalari bo'yicha fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan xodim T.Kumakov hamda Farg'ona BXO mahalla bankiri N.Erkinov va uning ukasi Farg'ona BXO yollanma ishchi mahalla agenti M.Erkinov) lari bo'yicha Nizomning 8-bobi (manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari) 21-bandi talablariga binoan bank xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan bartaraf etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Bosh bank xodimlarida aniqlangan **160 ta**, BXO va BXM xodimlarida aniqlangan **39 ta** hamda fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan shaxslarda aniqlangan **12 ta**, jami **211 ta** "ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" holatlari yuzasidan xodimlarning bevosita rahbarlari tomonidan doimiy ravishda nazorat va monitoring qilib borish, profilaktik tushuntirishlar hamda o'quv-trening mashg'ulotlari o'tkazish lozimligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, **2045 nafar** (11-ilova), shundan **1102 nafari** Bosh bank va **943 nafari** BXO va BXM xodimlar bo'yicha yaqin qarindoshlari bilan bog'liq ma'lumotlar Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan "IABS" dasturiga to'liq

kiritilmaganligi sababli, tizimda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini to‘liq tahlil qilish imkoni cheklanganligi ta’kidlandi.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 5-martdagi 03-07/17-sonli (XDFU) xatiga asosan, Agentlikning “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra, Bank va uning BXO (BXM)larida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq **794 ta** (12-ilova) xavf holati aniqlanganligi ma’lum qilindi.

Agentlik tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatda **794 nafar** holat quyidagicha ko‘rsatilgan:

- **659 nafar**ining xususiy sektorda faoliyati mavjudligi;
- **55 nafar**ining bank tizimida yaqin qarindoshlari mavjudligi;
- **57 nafari** o‘rindoshlik (yoki shartnoma) asosida ishlash holatlari qayd etilganligi;
- **16 nafar**ining bankda yaqin qarindoshlari hamda xususiy sektorda faoliyati mavjudligi;
- **5 nafari** o‘rindoshlik (yoki shartnoma) asosida ishlashi hamda xususiy sektordagi faoliyati mavjudligi;
- **2 nafari** o‘rindoshlik (yoki shartnoma) asosida ishlashi, yaqin qarindoshlari va xususiy sektordagi faoliyati mavjudligi;

O‘rganish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq **794 ta** xavf holatidan **221 tasi** tasdiqlandi, **549 tasi** bo‘yicha aniqlik kiritib bo‘lmadi, **24 tasi** esa ro‘yxatda takroriy ekani ma’lum bo‘ldi.

Shuningdek, o‘rganishlar davomida:

- **20 nafar** xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi;
- **32 nafari** bola parvarishlash ta’tilida ekanligi;
- **62 nafar** xodimda (**59 ta** ehtimoliy, **3 ta** mavjud) manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanganligi;
- **170 nafar** xodimning xususiy sektordagi faoliyati mavjud bo‘lib, ulardan **152 tasida** faoliyat davom etmoqda, **18 tasida** esa faoliyat tugatilganligi ta’kidlab o‘tildi.

Komissiya a’zolari taqdim etilgan ma’lumot hamda bildirilgan takliflarni muhokama qilib,

### **QAROR QILDI:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari (**Sh. Ismoilov**)ning kun tartibi bo‘yicha bergan 1-12-ilovalardagi axboroti ma’ulmot uchun qabul qilinsin.

2. Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti (**Yu. Vershilo**) zimmasiga:

- BXO va BXOmlarda aniqlangan **3 ta** “mavjud manfaatlar to‘qnashuvi” (yaqin qarindoshlar biri ikkinchisining bevosita bo‘ysinuvida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan) holat (Jizzax BXO boshqaruvchisi S. Israilov va uning qayni opasi Jizzax BXO mijoz menejeri D. Ashurova (Bola parvarishlash ta’tilida), Xorazm BXO boshqaruvchi o‘rinbosari (biznes bo‘yicha) R. Tangribergenov va uning turmush o‘rtog‘i Urganch BXM universal kassiri

F.Atajanova (Bola parvarishlash ta' tilida) va Qoraqalpog'iston Respublikasi BXO boshqaruvchi o'rinbosari (davlat dasturlari bo'yicha) A.Djoldasbaev va uning turmush o'rtog'i Innovatsiya BXM kichik servis menejeri M.Ismailova (Bola parvarishlash ta' tilida) lari mehnat qonunchiligi talablariga binoan belgilangan tartibda bola parvarishlash ta' tilida ekanligi va hozirgi kunda bevosita bank amaliyotlarini bajarmayotganligi sababli, ular bola parvarishlash ta' tilidan qaytganidan so'ng, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasi o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishini inobatga olib, ushbu holatni nazoratga olish;

- Bank va uning BXO (BXM)larida **3 ta** "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" (yaqin qarindoshlar biri ikkinchisining faoliyatini nazorat qilib kelayotganligi) holat (Qoraqalpog'iston Respublikasi BXO mijoz menejeri M.Asaubekov va uning turmush o'rtog'i Taxiatosh BXM yakuniy nazorat guruhi kichik menejeri G.Niyetova hamda Axborot texnologiyalari departamenti yetakchi dasturchi M.Kumakov va uning ukasi Axborot texnologiyalari bo'yicha fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan xodim T.Kumakov hamda Farg'ona BXO mahalla bankiri N.Erkinov va uning ukasi Farg'ona BXO yollanma ishchi mahalla agenti M.Erkinov) lari bo'yicha Nizomning 8-bobi (manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari) 21-bandi talablariga muvofiq, xodimlarning lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlarini qayta ko'rib chiqish (masalan, boshqa ishga o'tkazish va boshqa chora-tadbirlar) orqali bartaraf etish;

- Bank va uning BXO (BXM)lari xodimlarida aniqlangan **199 ta** va fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan **12 ta**, jami **212 ta** "ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" holatlarini xodimlarning bevosita rahbarlari tomonidan doimiy ravishda nazorat va monitoring qilib borish, profilaktik tushuntirishlar o'tkazish (natijasi bo'yicha bayonnoma rasmiylashtirish) orqali ushbu holatlar "mavjud manfaatlar to'qnashuvi"ga aylanmaslik choralari ko'rish yo'li bilan manfaatlar to'qnashuvi oldi olish va boshqarish;

- Aniqlangan "ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" holatlari bo'yicha har bir xodim bilan o'tkazilgan profilaktik tushuntirishlar yuzasidan rasmiylashtirilgan bayonnomalarni Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga taqdim etilishini ta'minlash;

- manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni taqdim etmagan **53 nafar**, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi (bank tizimida faoliyat olib borayotgan yaqin qarindoshlariga tegishli) ma'lumotlarni ochiq qilmagan **22 nafar**, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni ochiq qilmagan **139 nafar xodimlarga** nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Bank Boshqaruv Raisiga taklif kiritish;

- yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq ko'rsatib o'tmagan **1555 nafar**, yaqin qarindoshlariga tegishli tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq ko'rsatib o'tmagan **1133 nafar** xodimlardan ularning rahbarlari mas'ulligi hamda nazorati ostida deklaratsiyalardagi ma'lumotlarni to'liq olinishini ta'minlash choralari ko'rish;

- 2026-yilning 30-apreliga qadar **2045 nafar** xodimlarning yaqin qarindoshlari bilan bog‘liq ma‘lumotlarni “IABS” dasturida to‘liq shakllantirilishini ta‘minlash hamda natijasi yuzasidan Odob-axloq komissiyasiga axborot taqdim etish.

**3. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati (Sh.Ismoilov) zimmasiga:**

- yillik deklaratsiyalarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari to‘g‘risidagi hamda yaqin qarindoshlariga tegishli tadbirkorlik faoliyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ochiqdamagan xodimlarga ogohlantirish xatlarini taqdim etish, shuningdek, ushbu ogohlantirishlarda tadbirkorchilik faoliyati mavjud xodimlarga **1 oylik** muddat ichida tadbirkorchilik subyekting tasischiligidan chiqish yoki tugatish choralarini ko‘rish yuzasidan ogohlantirish berish;

- Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq xavflar yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganish natijalari hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga belgilangan tartibda ma‘lumot taqdim etish;

- Bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari va hududiy tarmoqlari rahbarlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymagan holda mehnat faoliyatini yuritish, bunda rahbar sifatida shaxsiy namuna ko‘rsatish hamda qo‘l ostidagi xodimlarning ushbu yo‘nalishdagi qonunchilik va ichki qoidalar talablariga qat‘iy rioya qilishlari ustidan doimiy nazorat o‘rnatish.

**4.** Mazkur yig‘ilish bayonida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari (**Sh.Ismoilov**)ga yuklatilsin.

**Boshqaruv Rais  
maslaxatchisi:**



**A.Islamov**

**№ 2**

**2026 yil «27» «mart»**

kelishuvchilar: Sh.Ismoilov, D.Xujayev, Y.Vershilo, A.Yoqubjonov, S.Sergiyenko, U.Aminova

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=bX22dM81&id=70bcb08e-5ea0-44e1-bc3d-7efec99ae89e>